



YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI HAMDA O'ZBEKISTON ISTIQBOLLARI

Ibodullayev Abror Axrorovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar”
kafedrasi dotsenti Phd

Umaraliyev Asrorbek
Abdurashidovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Soliqlar va budjet hisobi” fakulteti St-
53/24guruh talabasi
E-mail – asrorbekumaraliyev80@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotga o'tishning iqtisodiy o'sishga ta'siri hamda O'zbekiston istiqbollari asosida o'rganildi. O'zbekiston uchun istiqbollari va imkoniyatlari tahlil qilindi. Ilmiy ishda yashil iqtisodiyotning mohiyati, va hozirgi kunda dolzarbligi, uning asosiy tamoyillari va iqtisodiyotimizni o'sishiga ta'sir etuvchi omillar ko'rib chiqiladi. Yashil iqtisodiyotga o'tish bilan bir qatorda yashil iqtisodiyotga oid texnologiyalarni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanish, resurslarni tejash va atrof-muhitga zararli chiqindilarni kamaytirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish yo'llari o'rganiladi. Bundan tashqari, maqolada O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi, mavjud muammolar va imkoniyatlar tahlil qilinadi. O'zbekiston iqtisodiyoti uchun yashil iqtisodiyotga o'tish istiqbollari, jumladan, yangi ish o'rinlari yaratish, investitsiyalarni jalb qilish, energiya samaradorligini oshirish va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari ko'rib chiqiladi. Maqola so'ngida O'zbekiston yashil iqtisodiyotga o'tishning iqtisodiyotga ta'siri kelajakdagi istiqbollari uchun taklif va xulosalar keltirib o'tiladi.

Kalit so'zlar

Yashil iqtisodiyot, ekologiya, tabiiy resurslar, islohotlar, investitsiyalar, sanoat, yashil ishlab chiqarish, yashil texnologiyalar, elektr ta'minoti, barqaror rivojlanish

KIRISH

Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotga o'tish asosida barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida ko'plab muhim vazifalar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-oktabrda kuchga kirgan, 2019-2030 yillar davrida O'zbekiston respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi tasdiqlash to'g'risidagi qarori muhim dasturi amal bo'lib xizmat

qiladi. “Yashil iqtisodiyot” ga o’tishning muhim vazifa maqsadlaridan biri energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya resurslaridan unumli foydalanish va uni rivojlantirish. Ushbu belgilangan maqsad va vazifalarni bajarishda texnologiyalarni modernizatsiya qilish va yashil iqtisodiyotni qo’llab-quvvatlashning moliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish orqali erishiladi. 2030-yilgacha bo’lgan davrda strategiya amalga oshirish jarayonida issiqxona gazlari chiqindilari chiqishi kamayadi. Buning natijasida arzon va sifatli elektr ta’minotidan foydalanish ta’minlanadi. Ekologik talablarga javob beradigan elektromobillar va yaxshilangan tavsifga ega motor yonilg’ilarini ishlab chiqarish kengaytiriladi. ¹Yashil iqtisodiyotga o’tish jarayonida atrof-muhit va ekologiya eng muhim omillardan hisoblanadi va ularni saqlab qolish ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish bilan bog’liq iqtisodiyotni rivojlantirishga muhim omil sifatida xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi. “Yashil iqtisodiyot” iqtisodiy fan sifatida XX asr oxirlarida shakllangan bo’lib, iqtisodiyotning tabiiy muhitga bog’liqligi, uning tarkibiy qismi ekanligi va tabiiy muhit doirasida amal qilishini o’rganuvchi fan hisoblanadi. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi resurslarni tejashga yo’naltirilgan iqtisodiyot, ekologik iqtisodiyot, atrof-muhit iqtisodiyoti, yashil siyosat, xalqaro iqtisodiy munosabatlar nazariyasi, iqtisodiyotni modernizatsiyalash, innovasion iqtisodiyot kabi iqtisodiy fanlardagi ilmiy g’oyalarni qamrab oladi.²

Demak Yashil iqtisodiyot tushunchasi global muammolar yuzaga kelish davridan boshlangan. Ushbu tushuncha nafaqat iqtisodiyotga balki, butun tabiatga ham sezilarli darajada o’z hissasini qo’shar ekan. Shuningdek, yashil iqtisodiyot barcha sohalaridagi resurslarni tejashga yo’naltirilgan hamda sohalaridagi ilmiy g’oyalarni ham qamrab olar ekan.


METODOLOGIYA

Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotga o’tishning iqtisodiyotimizga ta’sirini hamda xalqaro tajriba bilan bir qatorda O’zbekiston istiqbollari kelajakdagi natijalarini yoritib berish maqsadida bir necha tadqiqot usullari va tahliliy, ilmiy abstraksiya va tahlil, sintez taqqoslash, statistik tahlil yondashuvlardan foydalanildi. Ilmiy ish davomida yashil iqtisodiyotga o’tish va uning iqtisodiyotimizga ta’siri o’rganish uchun turli xil nazariyalar o’rganildi va taqqoslandi. Shuningdek hozirgi kunda yashil iqtisodiyot to’g’risida amalga oshiriliyatgan islohotlar natijasi tahlil qilindi Yashil iqtisodiyot strategiyalarni barqaror rivojlanishini o’rganishda butun dunyoda sodir bo’layotgan yangiliklar, hamda bu islohotlarni yanada chuqurroq o’rganish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Kambag’allikni Qisqartirish va Bandlik Vazirligi O’zbekiston Respublikasi Statistika Qo’mitasi, Iqtisodiyot va Moliya Vazirligi va boshqa davlat organlarining rasmiy saytlaridan olingan ma’lumotlardan foydalangan holda ilmiy ish mavzusi aniqroq yoritib berildi.

¹ O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 2019-2030-yillar davrida O’zbekiston Respublikasida “Yashil” iqtisodiyotga o’tish strategiyasini tasdiqlash to’g’risida

² A.B.Вахабов, Ш.Х.Хажибакиевва бошқалар.—Тошкент.: “Universitet”, 2020.-262б.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston hukumati tomonidan 2030-yilga qadar daromad darajasini o'rtadan yuqori bo'lgan sanoatlashgan davlatga aylantirish bo'yicha 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida o'z qarashlarini bayon qilib o'tdi. Yashil iqtisodiyotga o'tishning iqtisodiyotga ta'siri va hozirgi amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini tahlil qilish orqali bir necha muhim omillarni ko'rsatadi. Yashil iqtisodiyotga o'tish natijasida O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga ham sezilarli natijasida ijobiy ta'sirini o'tkazdi. Buning natijasida davlatni iqtisodiy hamkorlik yo'llarini ochib bermoqda, rivojlangan davlatlar bilan hamkorliklar qilish mamlakat kelajagi uchun istiqbolli loyihalarni amalga oshirishga erishilmoqda.



1-rasm

Yashil iqtisodiyotga o'tishning asosiy ustuvor yo'nalishlari³

O'zbekiston yashil iqtisodiyotga o'tish davrida quyidagi rasmda ko'rsatilgan uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqdi. Yuqoridagi belgilangan yashil iqtisodiyotga o'tishning asosiy yo'nalishlarini belgilab olish katta maqsad va vazifalarni o'z ichiga oladi. Shuningdek asosiy yo'nalishlardan biri bo'lgan sanoat va ishlab chiqarishda kam uglerodli rivojlanish ya'ni hozirgi kunda ko'plab ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalar va ishlab chiqarish asbob uskunalarini ta'minlash. Bu orqali ishlab chiqarish jarayonida atrof-muhitga chiqadigan zararli modda, chiqindilar keskin ravishda kamayadi. Investitsiyalarni oshirish innovatsiyalar va davlatning yashil xaridlar hajmi kengaytirish, yangi yashil ishlab korxonalarini va yashil iqtisodiy zonalarini tashkil etish, buning natijasida ishsiz aholi ish bilan ta'minlanadi, ishsizlik kamayadi.

³ Chizma muallif tomonidan ishlab chiqildi. Manba O'zbekistonda "Yashil" O'sish va Iqlim O'zgarishi bo'yicha siyosiy Muloqotlar turkumi: Ishlar to'plami 1-sessiya

Davlatimiz mana shunday yangi loyihalarni qo'llab quvvatlashi hamda moliyalashtirishda ko'maklashishi kerak. Bu esa o'z navbatida "yashil" iqtisodiyotga o'tish iqtisodiyotimizga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tabiiy resurslarimizda samarali foydalanishni barcha sohalarida amalga oshirish xususan qishloq va suv xo'jaliklarida islohotlar ishlab chiqish orqali barqaror va samarali foydalanishga erishiladi.

Taklif va xulosalar. Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotga o'tishda istiqbolli rejalarni amalga oshirish tabiiy resurslarimizdan oqilona foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya resurslarini rivojlantirish. Barcha sohalarida "yashil" texnologiyalarni joriy qilish hamda qishloq xo'jaligi va sanoat, transport sohalarida energiya tejovchi va atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan texnologiyalarni keng targ'ib lozim. Tashkiliy salohiyatini oshirish va kadrlarni kasbiy mahoratini rivojlantirish, oliy ta'lim tizimida va maktablar hamda professional ta'lim tizimida atrof-muhit bilan bir qatarga yashil iqtisodiyotga mos maxsus dasturlarni yaratish, o'sib kelayotgan yosh avlodni ekologiya bo'lgan qarashlarni o'zgartirish, yoshlar o'rtasida turli xil loyihalar amalga oshirish, bu borada zamonaviy kadr mutaxassislarni tayyorlash kerak. Yashil iqtisodiyotga o'tish orqali nafaqat ekologik muammolarni kamaytirish balki iqtisodiy o'sishimizni yangi bosqichiga ko'tarilishimiz mumkin. Shuningdek, yashil investitsiyalarni amalga oshirish, yangi ish o'rinlarini joriy qilish, aholini turmush tarzini yaxshilashga yordam beradi. O'zbekiston jahon miqyosida raqobatbardosh iqtisodiy darajaga erishish imkoniyatiga ega va yuqoridagi asosiy yo'nalishlar barqaror va buyuk kelajak sari asosiy bosqichlar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida PF-60-sonli farmon – lex.uz
2. The Transition to a Green Economy: Benefits, Challenges and Risks from a Sustainable Development Perspective Report by a Panel of Experts 6 p
3. Bobojonova, M. J., and N. T. Sodiqova. "YASHIL IQTISODIYOT RIVOJLANISHIDA XALQARO HUJJATLARNING TARKIBIY TUZILISHI VA UNING O'RNI." *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS* 1.5 (2025): 222-231.
4. Xodjayeva, Muhayyo Ulmasovna. "YANGI O 'ZBEKISTONNI "YASHIL" IQTISODIYOTGA O 'TISH ISTIQBOLLARI." *GOLDEN BRAIN* 2.4 (2024): 69-74.
5. <https://lex.uz/>
6. <https://minergy.uz>
7. stat.uz/uz